

OCHIQ MAYDONDAGI GULCHILIKNING AHAMAIYA

L.U.Norqulova,

o'qituvchi O'zbekiston-Fenlandiya pedagogika instituti Samarqand

D. O. Yandashova,

talaba O'zbekiston-Fenlandiya pedagogika instituti Samarqand

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida ochiq maydonda ekiladigan gullarni parvarishlash va ularni turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ko'chatlarni pikirovka qilish, ko'chat o'tkazish, Senecio elegans, Euphorbia lathyris, Gamphrena globosa.

Аннотация: В данной статье представлена информация об уходе и видах цветов, высаживаемых в открытом грунте в Узбекистане.

Ключевые слова: уход за рассадой, пересадка, Senecio elegans, Euphorbia lathyris, Gamphrena globosa.

Abstract: This article provides information on the care and types of flowers planted in the open field in Uzbekistan.

Key words: seedling care, transplanting, Senecio elegans, Euphorbia lathyris, Gamphrena globosa.

Mart oyining oxiri aprel oyining boshlarida klarkiya, hidli no'xat, rezeda, tirnoqgul, ko'knorgul ekiladi. Bir yillik gullar urug'ini O'zbekiston sharoitida kuzda ekish ham mumkin, ya'ni noyabr oyining o'rtalarida unib chiqmaslik sharti bilan ekilib, ekilgandan sinf ustki tomoni yaxshi yopiladi, aks holda urug'ni "qishlatish" mumkin. Erta bahorda esa urug'lar bir tekis unib chiqadi.[2]

Ko'chatlarni pikirovka qilish. Gullarni pikirovka qilishdan asosiy maqsadimiz yaxshi sifatli ko'chat olish. Pikirovka davrida gul ko'chatlari issiq parniklardan sovuq parniklarga olib o'tiladi. Ko'chat olib o'tkazish davrida ularning o'z

ildizlarini ichki qismlari Cho'lon tashlanadi, chunki shunday qilinmasa, yon ildizlarni rivojlanishi sust bo'ladi. Yon ildizlarning yaxshi rivojlanishi va ko'p bo'lishi esa gullarning ozuqa va namlikdan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Issiq issiqxonadagigul ko'chatlarni 2-3 chi barglari yaxshi rivojlangandan ana pikirovka qilinadi.[1]

Ko'chat o'tqazish. Ko'chatlarni o'tqazish paytida har bir ko'chatning 4-5 tadan yaproqlari bo'lishi shart. Ularni iloji boricha havo bulut bilan vaqtda yoki kechqurun o'tqazish kerak. Kovlab olingan ko'chatlarning ildizlaridan imkoniyat boricha tuproqlari to'kilmasligi ma'quldir. Shuning uchun ko'chatlar olinishdan oldin yaxshilab sug'orilib, so'ng ko'chatlarni olish talab etiladi, hamda ko'chatlarni doimiy yerga o'tqazishdan oldin ularni o'tqazish qatorlarini har bir o'simlikni orasini aniqlab, har bir chuqurchaga oz-ozdan chirindi aralashmasidan solib havo issiq bo'lsa oz miqdorda suv ham solinadi. Shundan so'ng ko'chatlarni o'tqazamiz,




ildizlarining yaxshi joylashishiga katta e'tibor berish shartdir. [1]

Krestovnik (Senecio elegans). Astradoshlar oilasiga mansub o'simlik. Iyundan to kech kuzgacha gullaydigan chiroyli o'simlik. Gullari oq, pushti, moviy, qizg'ish, qizil va binafsha rangda bo'lgan qatma-qat gulli navlari ko'p ekiladi. Krestovnikning urug'i mart oyida iliq issiqxonaga sepiladi. Maysasi pikirovka qilinadi va iliq kunlar boshlanishi bilan ko'chatlari gulzorga o'tqaziladi. Krestovnik meditsinada ham keng

qo'llaniladi. Undan siydik haydovchi dori-darmonlar tayyorlanadi hamda bronxit kasalligiga davodir.[1]

Sutlama gul (Euphorbia lathyris). Sutlamaguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, uning har xil bargli, naqsh yaproqli turlari bor. Gulchilikda yashil rangli, kumush bargli turi ko'p ekiladi. Poyasi guldasta qilish uchun juda yaxshi material bo'ladi. Urug'i fevralning oxiri yoki martning boshida gulzorga sepiladi.[1]



Sharsimon gamfrena (Gamphrena globosa). Gultojixo'rozdoshlar oilasiga mansub bo'lib, bu gulning vatani Sharqiy Hindistondir. Balandligi 70-80 sm ni tashkil etadi. Gullari lo'nda bo'lib, diametri 2-3 sm. Ranglari oq, pushti, moviy, qizil bo'ladi.



Serquyosh, sernam hamda yumshoq yerni yoqtiradi va shunday joylarda nihoyatda ko‘p hosil beradi.[1]

Xulosa qilib aytganda, ochiq yerda o‘sadigan gullarni ko‘paytirishda, parvarish qilishda yuqoridagi kabi qoidalarga rioya qilish lozim, aks holda dorivor (masalan, kristovnik va boshqalar) va insonga estetik zavq bag‘ishlaydigan gullarning kamayib ketishiga sababchi bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash Ne‘matov, Ermat Ashurov, Ilhom Muqumov: "Ochiq maydondagi gulchilik" -Samarqand-"Sug‘diyona"-1997-y, 277-b.

2. Ataboyeva N., Qodirxo‘jayev O. -"O‘simlikshunoslik"-Toshkent -"Yangi asr avlodi" -2016, -300-b.

3. Toshpo‘latovich, Y. O. (2022). THE IMPORTANCE OF USING NON-STANDARD TEST TASKS IN MONITORING STUDENT KNOWLEDGE. *Open Access Repository*, 9(11), 44-53.